

# Xazrati Imom majmuasiga tashrif

Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish fakulteti turizm yo'nalishi talabalari Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi doirasida Xazrati Imom majmuasiga ziyorat qilgani bordi ziyoratgoxdan joy olgan me'moriy yodgorliklarni tomosha qilib zavqlanib qaytishdi.

(Xazrati Imom majmuasi tarixi)

**Hazrati imom majmuasi**, Hastimom — Toshkentdagi me'moriy yodgorlik (16—20-asrlar); majmua **imom Abu Bakr Muhammad ibn Ali Ismoil ash-Qaffol Shoshiy qabri** atrofida shakllangan. Qabr va uning atrofida vujudga kelgan **qabriston** va me'moriy yodgorlik majmuasi **Hazrati imom nomi** bilan ataladi. Dastlab **Baroqxon madrasasi**, keyinroq **Qaffol Shoshiy maqbarasi**, 16-asr oxirlarida **Suyunchxo'jaxon** va noma'lum **maqbara**, 1579 yilda **Abdullaxon II** mablag'iga **qo'sh** uslubida Shayx bobohoji maqbarasi **qurilgan** (saqlan-magan). 16-asrda majmua tarkibida sayrgoh bog' barpo etilgan, **ayvonlar** qurilgan, **hovuz** atrofi ko'kalamzorlashtirilgan, xalq **sayillari** o'tkazilgan. 19-asr o'rtalarida Toshkent namozgohi (Tillashayx masjidi), Mo'yi Muborak madrasasi, **Jome masjidi** (saqlanmagan) bunyod etilgan. 20-asr boshlarida Tillashayx masjidi **qayta qurilgan**. **Eshon Boboxon** ham shu joyda dafn etilgan. Hazrati Imom majmuasim.da **O'zbekiston musulmonlari idorasi** joylashgan.



